XALQ DEPUTATLARI NUROBOD TUMAN KENGASHINING
Q A R O R I
141100, Nurobod tumani, Mustaqillik ko‘chasi, 2-uy, Tel: (66) 633-16-34, (66) 633-18-66, e-mail: nurobod.t@exat.uz

2023 - yil 29 - dekabr VI-80-127-7-99-K/23 Nurobod tuman hokimligi

Samarqand viloyati Nurobod tumanining 2024-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6- va 24-moddalari, “Budjet kodeksi”ning 99-moddasi, “2024-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi Qonuniga hamda xalq deputatlari Samarqand viloyati Kengashining 2023-yil 27-dekabrdagi “Samarqand viloyatining 2024-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida”gi VI-94-126-7-0-K/23-sonli qaroriga muvofiq, xalq deputatlari Nurobod tumani Kengashining oltinchi chaqiriq, saksoninchi sessiyasi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasining “2024-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi Qonuni hamda xalq deputatlari Samarqand viloyati Kengashining 2023-yil 27-dekabrdagi “Samarqand viloyatining 2024-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori ijro va rahbarlik uchun qabul qilinsin.

2. Xalq deputatlari Samarqand viloyati Kengashining 2023-yil 27-dekabrdagi “Samarqand viloyatining 2024-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida”gi VI-94-126-7-0-K/23-sonli qaroriga asosan:

Nurobod tumani budjetiga Samarqand viloyati budjetidan ajratilgan tartibga soluvchi budjetlararo transfert 79 602 274,0 ming so‘m, shundan mobil aloqa xizmatlari, tamaki va alkogol mahsulotlari, shu jumladan pivo uchun aksiz solig‘i bo‘yicha transfertlar 27 497 000,0 ming so‘m miqdorda tasdiqlanganligi;

tuman budjetining aylanma kassa mablag‘i 1 285 000,0 ming so‘m miqdorda belgilanganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

3. Nurobod tumani mahalliy budjeti daromadlarining 2024-yildagi asosiy prognoz ko‘rsatkichlari 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Nurobod tumani mahalliy budjeti xarajatlarning 2024-yilgi asosiy ko‘rsatkichlari 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

5. 2024-yil uchun tuman budjeti zaxira jamg‘armasi hajmi 1 736 752,0 ming so‘m miqdorda belgilansin.

6. Tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limi:

tegishli budjetlarni birinchi navbatda ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar, oziq-ovqat va dori-darmon va kommunal xizmatlar xarajatlarining rejalashtirilishini nazarda tutgan holda shakllantirish;

budjet daromadlari va xarajatlarining prognoz ko‘rsatkichlari bajarilishini ta'minlash;

budjet intizomiga rioya etilishi ustidan nazorat va mas’uliyatni yanada kuchaytirish;

tegishli mahalliy budjetlarga soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning to‘liq tushumini ta’minlash;

budjet daromadlar bazasini oshirish va qo‘shimcha rezervlarni aniqlash zarurligiga alohida e’tibor qaratsin;

soliq bazasini kengaytirish, iqtisodiy salohiyatni oshirish yuzasidan zarur chora-tadbirlar belgilash, budjet mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanish ustidan qat'iy nazoratni o‘rnatish;

tegishli ravishda hududiy budjet mablag‘lari taqsimlovchilarning budjet mablag‘laridan samarali foydalanish hamda erishilgan natijalar bo‘yicha hisobotlarni xalq deputatlari tuman Kengashiga kiritib borilishini ta'minlasin.

7. Tuman soliq inpeksiyasi boshlig‘i (M.Erkinov)ga O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 14-iyundagi “Faol ishbilarmonlik muhitini shakllantirishni yanada rag‘batlantirish, soliq majburiyatini bajarishda aholi tomonidan ortiqcha xarajatlarga yo‘l qo‘ymaslik hamda qo‘shimcha ish o‘rinlarini yaratishga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-192-sonli qaroriga asosan yer uchastkalaridan hujjatlarsiz foydalanayotgan jismoniy shaxslarga yer solig‘ining uch karra oshirilgan stavkasida soliq hisoblash tartibi to‘xtatilganligini inobatga olib, tumanda jismoniy shaxslarga hisoblangan uch karra oshirilgan stavkada hisoblangan soliq qarzdorligini bartaraf etish yuzasidan aniq hisob-kitoblar asosida yuqori tashkilotlariga taklif kiritish

vazifasi yuklatilsin.

8. Ushbu qaror rasmiy e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

9. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (S.Suyarov) hamda tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (R.Ibragimov) zimmasiga yuklansin.

Kengash raisi **S.Berdikulov**

Xalq deputatlari Nurobod tuman
Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
VI-80-127-7-99-K/23-son qaroriga
1-ilova

Nurobod tumani mahalliy budjeti daromadlarining 2024-yildagi asosiy prognoz ko‘rsatkichlari

(ming so‘m)

T/R	Daromad turlari	Jami
Jami daromadlar		**115 485 000,0**
1	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	56 010 000,0
2	Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i	3 192 000,0
3	Aylanmadan olinadigan soliq	5 120 000,0
4	Jismoniy shaxslarning mol-mulkini ijaraga berishidan olinadigan yillik daromadlari bo‘yicha deklaratsiyaga asosan hamda yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan to‘lanadigan daromad solig‘i	980 000,0
5	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i	10 100 000,0
6	Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i	7 186 000,0
7	Yakuniy iste’molchilarga benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz realizatsiya qilishdagi aksiz solig‘i	5 390 000,0
8	Yuridik shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i	2 580 000,0
9	Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘ining	14 578 000,0
10	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq (bundan elektr stansiyalari tomonidan to‘lanadigan soliq mustasno)	1 220 000,0
11	Noruda qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq	8 529 000,0
12	Qonun hujjatlarida belgilangan miqdorlarda davlat mulki bo‘yicha ijara to‘lovlari	70 000,0
13	Yig‘imlar	530 000,0

Xalq deputatlari Nurobod tuman
Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
VI-80-127-7-99-K/23-son qaroriga
2-ilova

Nurobod tumani mahalliy budjeti xarajatlarning 2024-yilgi asosiy ko‘rsatkichlari

(ming so‘m)

№	Ko‘rsatkichlar	2024-yil
Nurobod tumani bo‘yicha xarajatlar miqdori, Jami		**195 087 274,0**
1.	Maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi	30 974 440,0
2.	Tibbiyot birlashmasi	87 480 635,0
3.	Madaniyat bo‘limi	3 904 929,0
4.	Yoshlar siyosati va sport bo‘limi	9 596 171,0
5.	Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi	5 092 643,0
6.	Tuman hokimligi	46 647 631,0
7.	Tuman Soliq inspeksiyasi	5 319 803,0
8.	Tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi	1 841 022,0
9.	Tuman qishloq xo‘jaligi sohasi	4 230 000,0